



## **TURKISTONDA JADIDLAR HARAKATI**

**Rahimov Mirzo Ulug'bek**

Toshkent Davlat Tibbiyot Universiteti 1-son Davolash ishi fakulteti 105 "B" guruh talabasi

**Iskandarov Sherzod Abudig'aniyevich**

Toshkent davlat tibbiyot universitetining Ijtimoiy fanlar kafedrasida dotsenti

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada jadidlar teatri, ozodlik, tenglik, adolat, jadidlar matbuoti, Rossiyadagi inqilobning jadidlar harakatiga ta'siri va jadidlar mafkurasi haqida yozilgan.*

***Kalit so'zlar:** "yangi usul", demokratik, modernizatsiya, ma'rifatchilik, xalq maorifi, "Ulug'lar maktabi", musavvat, general-gubernator, "Sho'royi islomiya", liberal-demokratik.*

O'rta Osiyoda milliy g'oya uchun kurash ma'rifatchilik, madaniyatni rivojlantirish uchun, milliy qadriyatlarni hamda ananalarni saqab qolish shaklida namoyon bo'ldi va u harakat "jadidchilik" nomini oldi. "Jadid" so'zi arabcha so'z bo'lib "yangi usul" degan ma'noni anglatadi.

Turkistonda XIX asr oxirida quruq madaniy-ma'rifiy harakatning yangi maktablar ochish va eski maktablarning qiyin o'qitish tizimiga nisbatan yengil tovush usuliga asoslangan yangi uslubda o'qitishga o'tishdan iborat emasdi. Ayni choqda u turk-islom huquqiy munosabatlarini millatga o'rgatish, milliy ma'rifiy taraqqiyot va milliy istiqloq muammolarini ham o'z ichiga olgan edi. O'rta Osiyoda jadidlar harakatini rivojlantirishda Istanbulda ta'lim olgan siyosat va jamoat arbobi Ismoil G'aspirali Bey (1851–1914) katta rol o'ynadi. Sharq tillari va Sharq adabiyotini yaxshi bilgan iqtidorli G'aspirali Bey Osiyoning musulmon mamlakatlarini modernizatsiya qilishga, ularning madaniy saviyasini oshirishga,



iqtisodiy va madaniy jihatdan rivojlanishiga halal berib kelayotgan to‘siqlarni bartaraf etishga intildi. O‘rta Osiyo jadidlari A. Navoiy, Bedil va Mashrab singari fan va madaniyat arboblarning boy g‘oyaviy merosining davomchilari edi. Ahmad Donish xalq maorifini mamlakatning taraqqiyparvar kuchlari harakatining asosi deb bildi. Turkistonda jadidchilikning maydonga kelishi va rivojlanishida Usmonli Turk imperiyasidagi ijtimoiy-siyosiy hamda madaniy-mafkuraviy g‘oya va harakatlarning ham ta’siri kuchli bo‘ldi.

Jadidlar xalqni ma’rifatli qilish, madaniyatini yuksaltirishning o‘zi yetarli emasligini, xalqning o‘z kuchi va imkoniyatlariga ishonch hosil qilishi zarurligini yaxshi tushunishar edi. Ularning ma’rifatchilik faoliyati sof ma’rifat kurashi bo‘lib, ular demokratik o‘zgarishlar uchun kurashni boshladilar va mamlakatda liberal-demokratik harakat asoschilariga aylandilar. 1911–1913-yillarda Turkistonning turli shaharlarida ular tomonidan ochilgan teatrlar jadidlar mafkurasini targ‘ib qilishning qudratli ommaviy vositasiga aylandi.

Jadidchilik harakatining yirik vakillaridan bo‘lgan Munavvarqori Abdurashidxonov (1878–1931) Turkistonda milliy ma’rifat va madaniyat rivojiga katta hissa qo‘shgan ziyolilardan biri edi. Munavvarqori 1913-yildan boshlab o‘z faoliyatini boshlagan “TURON” truppasining tashkilotchilaridan bo‘ldi. 1914-yil 27-fevral kuni Toshkentdagi “Kolizey” teatr binosida o‘zbek milliy teatrining ochilish marosimi o‘tkazildi. Munavvarqori teatrning asl ma’nosini “ibodatxona” yoki “ulug‘lar maktabi” deb izohlagan edi.

Abdulla Avloniy (1878–1934) o‘zbek xalqining atoqli shoiri, muallimi va mutafakkiri, jadidlarning yetuk vakillaridan biridir. U 1913-yilda tashkil etilgan professional “Turon” nomli teatr to‘garagining tashkilotchilaridan bo‘lgan. Ushbu



to‘garak keyinchalik Hamza tomonidan tashkil etilgan truppa bilan qo‘shilib, hozirgi bosh drama teatri — Hamza nomidagi Milliy davlat akademik teatri uchun asos bo‘ldi. Ayni paytda Avloniy o‘z teatr jamoasi uchun “Pinak” (1915), “Advokatlik osonmi?” (1916) kabi sahna asarlarini yozib berdi va ularni sahnalashtirdi.

Davra va zamon nafasini chuqur his etgan, hozirjavob ma‘rifatparvar va demokratik shoirlardan biri Hamza (1889–1929) edi. Hamza ma‘rifatning hayotdagi o‘rnini o‘zining 1916-yilda yozgan “Zaharli hayot” dramasida yanada yorqinroq talqin etadi. Asarning bosh qahramoni ayol — Maryamxon bo‘lib, u sevgan kishisi Mahmudxonni haqiqat va adolat yo‘liga, ya‘ni ma‘rifat va baxtiyorlik yo‘liga boshlaydi.

Jadidlar o‘zbek xalqi uchun o‘z ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy asoslariga ega bo‘lgan yangi o‘zbek davlatini barpo etishga yo‘l ochib beruvchi milliy g‘oyani shakllantirdilar. Jadidlar o‘zbek xalqining ijtimoiy tafakkurida qaror topgan ko‘p asrlik insonparvarlik, erksevarlik va adolat g‘oyalarining ulug‘ davomchilari edilar. Ular Turkistonning xususiy mulk davlat himoyasida bo‘lgan, qonun bilan kafolatlangan ozod va mustaqil davlatga aylanishini; har qanday dinga hurmat nazari bilan qaraydigan va o‘z xalqining erkin rivojlanishi uchun sharoit yaratadigan davlat bo‘lishini istardilar. Shuningdek, Turkistonning yuksak taraqqiy etgan Yevropa va Osiyo davlatlari qatorida munosib o‘rin egallagan davlat sifatida ko‘rinishini ham orzu qilganlar.

Rossiyada 1905–1907 yillarda va 1917 yil fevralida bo‘lib o‘tgan inqiloblardan keyin Turkiston jadidlari davom etayotgan mustamlaka qaramligi sharoitida o‘lkada ma‘naviy va milliy uyg‘onishga erishish imkoniyati yo‘qligini



anglab yetdilar. Abdulqodir Shukuri, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Munavvar Qori va boshqalar o‘z kuch-g‘ayratlarini islohotchilik g‘oyalarini aholi orasida targ‘ib etishga qaratdilar. Qattiqqo‘l senzura bo‘lishiga qaramay, ular o‘z gazeta va jurnallarini nashr eta boshladilar. Turkistonda jadidlarning “Taraqqiy”, “Shuhrat”, “Hurshid”, “Sadoyi Turkiston”, “Samarqand”, “Oyna”, “Turon”, “Buxoroi Sharif”, “Sadoyi Farg‘ona” va boshqa gazeta hamda jurnallari chop etila boshlandi.

Jadidlarning asosiy xizmatlari shundan iborat ediki, ular milliy istiqlol g‘oyasiga asos soldilar, Turkiston tarixining unutilgan qahramonona sahifalarini tiklab, tarixning tarbiyaviy ahamiyatini ko‘rsatib berdilar. Ularning yana bir muhim xizmatlaridan biri shunda ediki, mavjud ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni tinch va samarali yo‘l bilan hal etishning eng to‘g‘ri usuli xalq maorifini isloh qilish, bilim olish va uni hayotga tatbiq etish zarur ekanligini asoslab berdilar.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Karimov I.” Yuksak ma’naviyat — yengilmas kuch” – Toshkent: Ma’naviyat, 2008.
2. Shamsiddinov R., Karimov Sh., Ubaydullaev O.”Vatan tarixi” – Toshkent: O‘qituvchi, yili ko‘rsatilmagan.
3. “O‘zbekistonning yangi tarixi” Birinchi kitob. – Toshkent: Sharq, 2000.
4. Karimov N. “Ma’naviyat” – Toshkent: Ma’naviyat, 2000.
5. “Sharq yulduzi” jurnali, 1992 yil, 5-son.